

**ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW**

journal homepage:  
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

## IMPORTANT FEATURES OF THE EASTERN CULTURAL RENAISSANCE

*Dildor Esonaliyevna Normatova*

associate professor  
Fergana State University  
Uzbekistan, Fergana

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Eastern Renaissance, science, culture, development of society, Eastern thinkers, spiritual and cultural heritage.

**Received:** 02.10.24

**Accepted:** 04.10.24

**Published:** 06.10.24

**Abstract:** the Eastern cultural renaissance is characterized by the emergence of significant achievements in science, art, literature and other fields. Revealing the influence and importance of Eastern thinkers in the philosophical thought of the Middle Ages and the Renaissance is important in educating our people, especially young people. This article highlights the formation of the Eastern cultural renaissance, the scientists and their philosophical views of this period, the progress of science, culture and the peculiarities of this period.

## SHARQ MADANIY UYG'ONISH DAVRINING MUHIM XUSUSIYATLARI

*Dildor Esonaliyevna Normatova*

dotsent  
Farg'onan davlat universiteti  
O'zbekiston, Farg'onan

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Sharq uyg'onish davri, ilm-fan, madaniyat, jamiyat taraqqiyoti, Sharq mutafakkirlari, ma'naviy – madaniy meros.

**Annotatsiya:** Sharq madaniy uyg'onish davri ilm-fan, san'at, adabiyot va boshqa sohalardagi muhim yutuqlarning yuzaga kelishi bilan ajralib turadi. Sharq mutafakkirlarining o'rta asrlar va Uyg'onish davri falsafiy tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri hamda ahamiyatini ochib berish xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada Sharq madaniy uyg'onish davri shakllanishi, ushbu davrdagi olimlar va ularning falsafiy qarashlari, ilm-fan, madaniyatning taraqqiy etishi hamda ushbu

## ВАЖНЫЕ ЧЕРТЫ ВОСТОЧНОГО КУЛЬТУРНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

**Дилдор Эсоналиевна Норматова**

*доцент*

*Ферганский государственный университет*

*Узбекистан, Фергана*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Восточный

Ренессанс, наука, культура, развитие общества, восточные мыслители, духовно-культурное наследие.

**Аннотация:** Восточный культурный ренессанс характеризуется появлением значительных достижений в науке, искусстве, литературе и других областях. Раскрытие тайны и значения влияния восточных мыслителей на философскую мысль Средневековья и возрождения приобретает важное значение для воспитания нашего народа, особенно молодежи. В этой статье освещается становление Восточного культурного возрождения, ученыe этого периода и их философские взгляды, развитие науки, культуры, а также особенности этого периода.

### KIRISH

Uyg‘onish davri butun Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda ro‘y bergan juda katta ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma'rifiy, diniy, madaniy jarayon hisoblanadi. Aytish mumkinki, ushbu davr milliy madaniyat taraqqiyoti, ilm-fanning yanada rivojlanishiga asos bo‘lgan muhim davrlardan biridir. Bu davrda, ta’lim muassasalari, ommaviy kutubxonalar, ilm-fan va adabiyotning hamjamiyati, falsafa, hujjatli mantiq, musiqa, rassomlik, tarix, tabiiy fanlar va boshqa sohalar yanada sezilarli rivojlandi. Ushbu davr to‘g‘risida Prezident Sh.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildiradi: “Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma’naviy uyg‘onish jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi. Bunday noyob hodisa “Renessans” – uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon”[1].

Sharq madaniy uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq va tahlil etish o‘z navbatida kelajak avlodning ma’naviy tarbiyasi yanada mustahkamlanishiga, ularda milliy o‘zlikni anglanishi, milliy iftixor, g‘urur tuyg‘usini yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

### ASOSIY QISM

Sharq madaniy Uyg‘onishining o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri shundaki, bu yuksalish jarayoni bir vaqtning o‘zida ham xalifalik markazida va hamda uning Mag‘ribu Mashriq

tomonlarida (Ispaniya Andaluziyasi va Markaziy Osiyoda) birdek namoyon bo‘ldi. Masalan: 9 asr boshlarida xalifalik poytaxti Bog‘dod bir vaqtning o‘zida ham islomiy madaniyat va dunyoviy madaniyat, ilmu-urfonning yirik markazlaridan biriga aylangan edi. Xalifa Xorun ar-Rashid (766-809) davrida Bog‘dodda tashkil etilgan. “Bayt ul Xikma” (Donishmandlar uyi) olimlarini birlashtirgan ilmiy muassasa Xalifa Ma’mun (819-833) davrida yanada rivojlandi. Unda ko‘p sonli qomusiy bilim sohiblari ilm-fanning turli-tuman sohalari bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borganlar. Bu allomalarning talay qismi O‘rta Osiyo namoyondalari bo‘lganliklari esa biz uchun alohida g‘urur va e’tiborga arzirlidir.

Bu davr dunyoviy ilm-fanning yana bir muhim yutug‘i shundaki, arab va ajam olimlarining katta sa’y-harakatlari, izlanishlari tufayli Yunon, Lotin, Misr, Hind tillarida bitilgan son-sanoqsiz noyob asarlar, qo‘lyozmalar topilib, ular arab tiliga tarjima etildi va hayotga ijodiy tadbiq etila boshladи.

Arab Mag‘ribi – Ispaniya Andaluziyasida ham Sharq uyg‘onishiga xos musulmon madaniyatining yuksak rivojlanganligi ko‘zga tashlanadi. Bu davr moddiy madaniyatining gultojisi – bu Gresiya (Andaluziya) poytaxti tepaligida bunyod topgan Alqambra me’moriy obidalar majmuidir. Bu yerda qad rostlagan arku qasrlar, masjidu-maqbaralar, inshootlar, ularning ichki va tashqi bezalishi, ularning peshtoxiga yuksak mahorat bilan bitilgan Qur’on surasiga oid husnixat yozuvlari bu madaniyatning takrorlanmas namunalaridir. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyolik olimu fuzalolar islam dini rivojiga buyuk hissalarini qo‘shar ekanlar, Allohning yakkayu yagonaligi, Allohning bir ekanligi to‘g‘risida tavhid bilan ham mashhur bo‘ldilar. Fanning bu jabhasida, sirlar sirida ish ko‘rgan zamon ulamolari va fuzalolari orasida buyuk qobiliyat egasi Abu Mansur Moturidiy nomi alohida ajralib turadi. Uning mashhur asarlari jumlasiga “Tavhid” asarini nisbat berish mumkin. Ushbu asar o‘sha zamon va davr ehtiyoji sifatida dunyoga kelgan. Sababi Moturidiy yashagan davr islam olamining “Oltin davri” hisoblangan. Ana shu davrda islam ilm markazi Bag‘doddan O‘rta Osiyoga ko‘chgan va Samarqand “Oltin davr” markaziga aylangan.

Moturidiy islam ilmidagi yuksak ilmiy muvaffaqiyatlari evaziga “Abu Mansur”, ya’ni “G‘olib ota” martabasiga tuyassar bo‘ldi.

Sharq ilk Uyg‘onish davri haqida, umuman, islam falsafasi, islam ta’limoti haqida fikr yuritganda, tasavvuf ta’limotini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Tasavvuf bu odamlarni hallollik, poklik, tenglik, inson qadr-qimmatini ulug‘la, o‘z mehnati bilan kun ko‘rish, boshqalar kuchidan foydalanmaslik va ijtimoiyadolat qoidalariga da’vat etuvchi ezgu ta’limotdir. Tasavvuf ta’limoti va yurtimizdan yetishib chiqqan yetuk mutasavvuflar tariqatlari keyingi paragrafda yoritiladi.

Ma’lumki, Sharqda, aynan O‘rta Osiyo zaminida yuz bergen Uyg‘onish jarayoni xususan dunyoviy fanlar rivojida alohida yuksalish bosqichi bo‘ldi. Bu borada ilm fan va madaniyat

taraqqiyotida turli tarixiy davrlarda faoliyat ko‘rstanan “Ilm uylari”-Bog‘dodagi (819-833) “Bayt ul xikmat” (Bog‘dod akademiyasi), Xorazm poytaxti Urganchdagi “Ma’mun akademiyasi”, shuningdek “Ulug‘bek akademiyasi” va boshqa ko‘plab ilm dargohlarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Uyg‘onish davri o‘z yuksak aql-zakovati, salohiyati, izlanishlari bilan fanning ko‘plab sohalarida muhim kashfiyotlar qilgan qanchalar buyuk daholarni yetishtirib berdi. Ular jahon fanining tibbiyot, farmakologiya, falakkiyot, matematika, jug‘rofiya, tarix, geologiya, geodeziya, mineralogiya, farmokologiya va boshqa yo‘nalishlarning tamal toshini yaratdilar. Bu muqaddas zamondan yetishib chiqqan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobi, Abu Bakr Muhammad Narshahiy, Abu Abdullo Xorazmiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Nizomulmulk, Kaffol ash-Shoshiy, Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa buyuk siymolar nomini haqli ravishda ehtirom bilan tilga olamiz. Milliy mustaqilligimiz sharofati bilan ularning boy milliy merosi sarchashmalaridan tag‘inda mo‘l-ko‘l baxramand bo‘la boshladik. “Istiqlol sharofati bilan, -degan edi Islom Karimov, - ma’naviyat buloqlarining ko‘zi ochildi, biz bu buloqning zilol suvlaridan bahramand bo‘la boshladik. Sho‘ro davrida unutilgan qadriyatlarimiz, nomi qralangan bobokolonlarimizning durdona so‘zlarini biz obi-kovsardek ko‘zimizga surtmoqdamiz. O‘ylaymanki, biz nimaga erishgan bo‘lsak, ana shu savobli ishlarimiz uchun Allohning bizga in’om etgan marhamatidandir”.[2]

Allomalarimiz qomusiy bilimdonliklari shundaki, ularning bir emas, balki ko‘plab ilm-fan yo‘nalishlarida ulkan kashfiyotlar qildilar. Bu jihatdan Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Farg‘oniy (797-865), Abu Nasr Farobi (873-950)larning fandagi jasoratlari ibratlidir. Agar al-Xorazmiy matematikaga oid “Hisob aljabr va al-Muqobala”, “Hind hisobi haqida kitob”, “Astronomik jadvallar”, “Quyosh soatlari haqida risola” asarlari bilan matematika (algoritm) va astronomiya geografiyasi fanining tom ma’noda yaratilishiga negiz bo‘lib xizmat qildi. Olimning “Kitob al-tarix”i esa Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo xalqlarining 8-9 asrlari davrini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Ma’lumki arablar Iroq, Misr va Suriyani istilo qilgunga qadar yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. 7-asrdan boshlab esa arab alifbosi bilan ifodalanuvchi raqamlar qo‘llanilgan edi. Al-Xorazmiy Hindistonda kashf qilgan 10 raqamidan sanoq tizimini o‘rgandi, soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon qildi. Al-Xorazmiy “Arifmetika”si bilan birga hindlar raqami ham arab dunyosiga kirib keldi. 12-asrda Yevropaning boshqa mamlakatlarida tarqaladi. Arab raqami hanuz jahonda shunday deb yuritiladi. Uni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy ekani Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida ham aytib o‘tilgan. U o‘z davridagi Bag‘dod ilmiy Akademiyasi faoliyatiga rahbarlik qilgan, bu esa uning nufuzining ko‘tarilishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Astronomiya, geografiya va boshqa fan sohalarida muhim kashfiyotlar qilgan Ahmad

al-Farg‘oniy nomi ham mangulikka dahldor. Chunonchi, olimning “Astronomiya asoslari haqida kitob”, “Al-Farg‘oniy jadvallari”, “Yetti iqlimni hisoblash haqida” singari asarlari olimga astronomiya ilmida jahoni shuhrat keltirdi. Yer sharining ilk bor haritasini tuzgan birinchi yirik geograf olim hamdir. U nafaqat Sharq dunyosida shuxrat qozonib qolmay, balki G‘arb olimlari e’tirofiga ham sazovor bo‘lgan. Shu bois u Yevropada “Alfraganus” nomi bilan mashhurdir. Bejiz yurtboshimiz Al-Farg‘oniyini “... kishilik tarixidagi ilk Uyg‘onish davrining eng zabardast va yorqin namoyondalaridan biri, o‘z zamonasi fundamental fan asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho‘qqilariga ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi, butun ma’rifiy dunyo olimlari uchun dastrulamal bo‘lib xizmat qildi”[3] deb ta’rif etgan edi

Tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga birdek katta hissa qo‘sghan, geologiya, minerologiya, geodeziya, geografiya, farmonologiya fanlarining tamal toshini qo‘yishga muvaffaq bo‘lgan Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ham ilm-urfon osmonining porloq yulduzlar sirasiga kiradi. Uning qalamiga mansub “Ma’sud qonuni”, “Saiydana”, “Minerologiya”, “Astronomiya kaliti”, “Quyosh kitobi”, singari asarlari necha asrlar davomida turli yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi dunyo olimlari uchun bitmas-tuganmas ilmiy xazina rolini o‘ynab keladi. Olimning chuqur ilmiy fundamental yirik asari “Hindiston” to‘g‘risida so‘z yuritgan akademik V.R.Rozhen “Sharq va G‘arbning qadimgi va O‘rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo‘q, deb baho beradi”.

Amerikaning taniqli adibi Vashington Irving ham bu majmuadan olgan hayratini o‘z asari “Algambra” da batafsil bayon etgani tasodifiy emas. Bu zamin xududlarining qulay jo‘g‘rofif mintaqa, Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahalarida joylashganligi, uning G‘arb bilan Sharqni bog‘lashdagi alohida o‘rni, qolaversa ulug‘ ajdodlarimizning bunyodkorlik, yaratuvchilik salohiyati – bular uning bag‘rida asta sekin hayratlanarli moddiy va ma’naviy o‘zgarishlarni yuzaga chiqara bordi. Bu narsa dastavval, shaharlar hayotining o‘sishida, savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojida, musulmon madaniyatiga oid mahobatli inshootlar, minoralar, maqbaralar, saroylar qurilishida, ipak yo‘li chorrahalar bo‘ylab ko‘plab karvonsaroylar, rabotu sardobalar (ularning qoldiqlari Malik, Mirzacho‘l va boshqa joylarda ham uchraydi) bunyod etilishida yaqqol ko‘rinadi. Masalan: birgina Xorazm vohasida 10-asrda 10 ta shahar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 11-asrga kelib ularning soni 40 taga yetadi. Buxoroning “Qubbatal islom” – islom dinining gumbazi degan nomga, Samarqandning esa yer yuzining sayqali nomiga sazovor bo‘lganligi fikrimiz dalilidir.

Tarixchi Abu Mansur As-Saolibiy (961-1038) ham Buxoro haqida mana bu so‘zlarni bejiz aytmagan bo‘lsa kerak! “Buxoro Samoniylar davridan boshlab, shon-shuhrat makoni, saltanat ka’basi va zamonasining ilg‘or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlar porlagan hamda o‘z davrining fozillari yig‘ilgan joy edi”.

X asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat boshlagan Xorazm Ma'mun akademiyasi ham bu yurtning ilmu urfoni ravnaqida alohida o'rinn tutdi.

Yurt obodonchiligi, mamlakat ravnaqi, qudratining yuksalishi davomida unda tabiiy ravishda ma'naviy madaniyat, ilm-fan rivoji ham jadal sur'atlar bilan ko'zga tashlanib bordiki, buning natijasida bu zamindan o'z elini shon-sharafga burkagan, dunyoga dovrug' taratgan mashhur allomalar ilm-fan yulduzlari yetishib chiqdilar.

O'rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, Markaziy Osiyoda Uyg'onish harakatlari davri Yevropada sodir bo'lganidek, ikki ijtimoiy-iqtisodiy tuzum-feodalizm va kapitalizm chegaralaridagiga o'xshash emas, balki yagona ishlab chiqarish usuli amal va hukmronlik qilib turgan jamiyatda – feodalizm bag'rida yuz beradi. Bu - Markaziy Osiyo Uyg'onish harakatining asosiy xususiyatidir.[4]

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo Uyg'onish harakatining ham o'ziga xos ma'naviy tayanchlari bo'lgan. Avvalom bor, bu antik zamon madaniyatiga ijobiy va ijodiy munosabatda bo'lishidir. Yevropa Uyg'onishi uchun antik madaniyat turtki bo'lganligi, unga orzu idealdagagi narsa sifatida qaralganligi ma'lum. Antik zamon deyilganda, odatda, qadimgi yunon tafakkuri, madaniyati ko'zda tutiladigan bo'lsa, shubhasizki, bu narsa Sharq Uyg'onish jarayonida ham ijobiy rol o'ynaganligini ta'kidlash mumkin. Gap shundaki, IX asrdan boshlab sharq allomalari yunon antik falsafasi, fani, madaniyati, adabiyot va san'atini ijodiy o'rgandilar. Aflatun, Arastu va boshqalarning falsafiy ta'limotlari Sharqda shu ruhdagi ta'limotlarning yuzaga kelishida va rivojida katta turtki bo'ldi. Adabiyotlarda qayd etilganidek, Sharqqa mashhur bo'lgan Platon (Aflatun), Platin, neoplatonchilik (ishtiroki yunonchilik), gnostisizm, Aristotel (Arastu)ning idealistik, mistik tomonlari ham kattagina ta'sir ko'rsatgan edi. Shuning uchun ham tasodifiy emaski, mutasavvuflarning qarashlarida Platon va Plotinning ta'limotlari, neoplatonik va mistik aristotelchilik momentlarini uchratamiz[5].

Ayni vaqtida o'rta asr Sharq mamlakatlarida antik zamon madaniyati namunalari tarjima qilindi, antik zamonning Iskandar haqidagi rivoyatlari keng tarqaldi, astronomiya, medisina, matematika singari fanlarning rivojlanishiga ularga bitilgan sharh (kommentariya)larning ta'siri katta bo'ldi. Shuning uchun Markaziy Osiyo Uyg'onish davri alloma va san'atkolarining badiiy-ilmiy asarlarida yunon mutafakkirlari va buyuk shaxslari obrazlari keng o'rinn egallaydi. A.Jomiyning "Xiradromai Iskandariy", A.Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlarida yunon olimlari sarkardasi obrazi yaratilishining boisi shunda. Demak Sharq Uyg'onishi ham yunon madaniyati bilan yaqindan aloqada bo'lgan.

Markaziy Osiyo Uyg'onish harakatida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari quldorlik davri madaniyatining ham alohida o'rni bor. Anglashiladiki, antik zamon Uyg'onish madaniyati uchun asosiy manba emas, balki bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Aslida Uyg'onish davrida qadimni

tiklash, uni qaytadan bunyod etishga zaruriyat bo‘lmagan. Bu davrda yangicha siyosiy va huquqiy fanlar, yangicha adabiyot va san’at, falsafa va estetik tafakkur, tibbiyot va ahloq yaratilgan, qadimgi antik dunyoda yuzaga kelgan fikrlash usuli, madaniyat shakllari ana shu jarayonning amal qilishiga ko‘mak beradi. Uyg‘onishning yana bir xususiyati insonning jaholatga qarshi muayyan qarashi – o‘zligini e’tirof etishi g‘oyasi shakllanishida ko‘zga tashlanadi va bunda Sharqning boy ma’naviy merosi alohida o‘rin tutadi, albatta.

Odatda Uyg‘onish davri haqida gap borganda uning buyuk siymolariga muhtojligi, ayni vaqtda o‘z tafakkur kuchi, ehtirosi, salohiyati, mukammallik va omillik jihatidan ulug‘ kishilarni yetishtirib bergenligi tilga olinadi. Shu nuqtai nazardan Xorazmiy, Farg‘oniy, Farobi, Firdavsiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Behzod kabi buyuk siymolarning dunyoviy madaniyat tarixida tutgan o‘rnini ibratlidir.

Sharq Uyg‘onishining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u yolg‘iz bir mamlakat chegarasida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va tarixiy taqdiri mushtarak bo‘lgan bir qator mamlkat va mintaqalarda tarixan bir davrga kechadi. Shu ma’noda Uyg‘onish harkati umumiy harakterga ega va u madaniyatning yakka-yolg‘iz bir sohasiga tegishli bo‘lib qolmay, ijtimoiy tafakkur, fan va san’atning barcha jabhalarini qamrab oladi.

Uyg‘onish umumiy qonuniyatlar, mushtarak jihatlar bilan bir qatorda takrorlanmas milliy xususiyatga ham ega ekanligini alohida ta’kidlash kerak. Chunonchi, XIII asrda mo‘g‘ul istilosini tufayli Markaziy Osiyoda iqtisodiy va madaniy taraqqiyot qariyib bir asr orqaga ketadi, keyinchalik uni qayta tiklashga to‘g‘ri keldi. Sharq Uyg‘onishi o‘zining ko‘p mamlakatliligi bilan ajralib turadi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari Uyg‘onishi birin-ketin, navbatma-navbat yuz bergan bo‘lsa, Sharq Uyg‘onish jarayoni turli mintaqada yashovchi ko‘plab xalqlarning madaniyatida tarixan bir vaqtda sodir bo‘ladi. Bu narsa ular o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunga asoslanib turib Sharqda bu jarayonni Ozarbayjon, Xuroson, Movarounnahr uchun mushtarak hodisa deb qarash mumkin.

Akademik M.Xayrullayev Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrini asosan ikki bosqichga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi. Birinchisi uning shakllanish davri bo‘lib, IX-XII asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Xorazmiy, Farg‘oniy, Farobi, Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Qoshg‘ariy, Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Yughnakiy kabi qomusiy ilm sohiblari, san’at ahllari yashagan va bular falsafiy-ilmiy yo‘nalishni rivojlantirganlar. Ikkinchisi Sharq Uyg‘onishining yetuklik bosqichini ifodalaydi, Ulug‘bek, Koshiy, Ali qushchi, Jomiy, Navoiy, Behzodlar yashab ijod qilgan XIV-XV asrlarni qamrab oladi. Xronologik jihatdan yondashadigan bo‘lsak bu davr Temur va Temuriylar yashagan zamonlar bilan bog‘lanadi, bunda badiiy-estetik yo‘nalish alohida sohani tashkil etadi.

## XULOSA

Sharq madaniy uyg'onish davri olimlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar, falsafiy-axloqiy, madaniy - ma'naviy qoida va o'gitlar mavjud -ki, ularga amaliy faoliyatda asoslanish, suyanish gavhardek zarur va muhimdir. Sharq mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ijod namunalari bizning asosiy milliy ma'naviy merosimizni tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi fikrlari o'rinnlidir: "Ajodolarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir"[6].

Umuman olganda, Sharq madaniy uyg'onish davri olimlari asarlarida axloqiy kamolot, madaniyat, ma'naviyat, qadriyat, halollik, poklik, imon, e'tiqod, ishonch va ixlos bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'plab uchratish mumkin. Ushbu g'oyalar, qarashlar asosida shakllangan va rivojlangan ta'limotlar inson qalbi va ruhiyati, axloqini poklash va halol yashash, zohiran va botinan pok bo'lish kabi insonning muhim jihatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Тошкент: Ўқитувчи МУ МЧЖ, 2021. – Б. 10.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –Б.18.
3. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –Б.10-25.
4. Абдуллаев М. Маданиятшунослик асослари. -Фарғона, 1998. –Б.95.
5. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. -Тошкент: Ўзбекистон, 1970. –Б.318-319.
6. Каримов, И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият нашриёти, 2008. –Б.176.
7. Норматова, Д. (2017). АХЛОҚИЙ МЕРОСДА ТАРИХИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР МАСАЛАСИ. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 14-14.
8. Норматова, Д. Э. (2023). IX-XII АСРЛАР ШАРҚ УЙГОНИШ ДАВРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ВА АХЛОҚИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 108-111. Норматова, Д. Э. (2023). IX-XII АСРЛАР ШАРҚ УЙГОНИШ ДАВРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ВА АХЛОҚИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 108-111.
9. Норматова, Д. (2023). ТАСАВВУФ ФОЯЛАРИНИНГ ЁЙИЛИШИ ВА УЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ АҲАМИЯТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 33, 332-336.
10. Норматова, Д. Э. (2019). НРАВСТВЕННОЕ НАСЛЕДИЕ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА. *Вестник Ошского государственного университета*, (3), 157-160.